

TRANSPORT XIZMATI

Yuk tashish. 2018 yil yanvar-martda barcha transport turlari tomonidan 8,7 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,3 foizga ko'paydi.

Yuk aylanmasi. Barcha transport turlari tomonidan 211,9 mln.tn-km.ni tashkil qildi va 101,4 foizga ko'paydi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha

	2018 yil yanvar-mart	2017 yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	8,7	101,3
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	8,7	101,3
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	211,9	101,4
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	211,9	101,4

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transporti yuk aylanmasi 2017 yil yanvar-martga nisbatan 101,8 foizga ko'paydi va 179,6 mln. tn-km.ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 84,7 foizni tashkil qildi (2017 yil yanvar-martda 84,4 %).

Yo'lovchi tashish. 2018 yil yanvar-martda barcha transport turlari tomonidan 99,5 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizga ko'paydi. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 102,7 foizga ko'payib, 3169,0 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2018 yil yanvar-mart	2017 yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	99,5	101,9
shu jumladan, avtomobil transportida	99,5	101,9
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	3169,0	102,7
shu jumladan, avtomobil transportida	3169,0	102,7

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yo'lovchi tashuvchi avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2017 yil yanvar-martga nisbatan 102,3 foizga ko'paydi va 2974,8 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 93,9 foizni (2017 yil yanvar-martda 94,2 %) tashkil qildi.

Yuk va yo'lovchi aylanmasining yanvar-mart oylaridagi umumiy hajmi

